

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Bosh muharrir o‘rinbosarlari

Mas‘ul kotib

Marg‘uba Abdullayeva

Qozoqboy Yo‘ldoshev

Roza Niyozmetova

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Sahlo Naraliyeva (Qozog‘iston), Homidjon Homidiy, Shohida Yusupova, Shahlo Yo‘ldosheva, Nusratillo Jumaxo‘ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo‘rayeva, Shahnoza Rahmonova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Husnigul Jurayeva, Sohiba Umarova, Shohrux Abduraimov, Munira Shodmonova, Mahfuza To‘ychiyeva, Matluba Jabborova, Abdug‘ofir Rahmonov, Iroda Ishonxanova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma‘lumot

“Metodika” seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta‘lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o‘qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o‘qitish sohalarini qamrab olgan. “Metodika” seriyasida professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta‘limdagi muammolar, til va adabiyot o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta‘lim va tarbiya nazariyasi yo‘nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O‘zbekiston: til va madaniyat. “Metodika” seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz
Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Boqijon To'xliyev

Alisher Navoiy pedagogik hamda metodik qarashlarining yana bir qirrasida haqida5

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar20

Gulshan Asilova

Til ta'limida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish30

Gulnoza Ahmedova

O'zbek tili darslarida nutqiy muloqot madaniyatini oshirishdagi faollik tamoyili42

Saodat Kambarova

Adabiyotni so'z san'ati sifatida san'atning boshqa turlari bilan qiyoslab o'rganish usullari54

Maxmuda Yuldasheva

Evristik yondashuvning ustivor jihatlari67

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova

O'quvchilarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish77

Munira Shodmonova

Ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari86

Klaraxon Mavlonova

8-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish mazmuni99

Shohruh Abdiraimov

Matnni o'qib tushunish ko'nikmasini baholash mezonlarini ishlab chiqish asoslari109

Sanobar Kuldasheva

Ona tili ta'limida multimediali usullardan foydalanish metodikasi ..119

Nilufar Berdiyeva

Ona tilini o'rganish bo'yicha qilingan tadqiqotlarni til ta'limida qo'llash.128

Namoz Rasulov

O'zbek tilida so'roq ifodalovchi lingvistik birliklar139

Feruza Sharopova

O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga oid tajribalar tahlili.....151

ADABIYOT O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Gulnoza Jurayeva

O‘zbek bolalar she‘riyati – ma‘rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida....161

Maxfuza Tuychiyeva

Badiiy tafakkur va adabiy talqin mutanosibligi 175

Iroda Ishonxanova

“Scaffolding” usuli – o‘quvchilarning mustaqil faoliyati asoslaridan biri sifatida184

Mahliyo Elboyeva

O‘zbek bolalar adabiyotini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar va metodlarning o‘ziga xos xususiyatlari 196

Jamoliddin Nurmuhammadov

O‘quvchida tahliliy va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun “Book review” strategiyasini tuzish metodikasi206

Sharofat Abdurahmonova

Aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi” ertagini kulturologik yondashuv asosida o‘qitish tamoyillari213

Moxidilxon Abdullayeva

5-6-sinf adabiyot darslari uchun rasmi lug‘atlar yaratish muammolari.....222

ONA TILI TA'LIMIDA MULTIMEDIALI USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Kuldasheva Sanobar²¹

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili ta'limidagi yangicha yondashuvlar, til ta'limini AKT bilan integratsiyalash, ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish, multimediali usullardan foydalanishning me'yor va mezonlari, intensivlik darajasi va mazmuni haqida fikr yuritilgan. Olimlarning til ta'limida multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari haqida bildirilgan fikrlari izohlangan. Dars jarayonlarida multimediyadan foydalanishning natijadorligi, darslikdagi mashq va topshiriqlar asosida multimedia ishlanmalarini yaratish metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *multimedia vositalari, mediamadaniyat, audiovizual vositalar, videolavha, audiomatn, animatsiya*

Kirish

Zamonaviy dunyo jamiyat oldida zamonaviy talablarni qo'yadi. Bunday jamiyatda o'rta ta'lim maktablarining oldida zamonaviy bilimli, axborotni saralay oladigan, mediamadaniyati shakllangan, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, rivojlanayotgan mamlakat uchun mas'uliyat tuyg'usiga ega avlodni tarbiyalash vazifasi turadi. Yangi avlodni tarbiyalash uchun zamonaviy o'qituvchi AKTga oid bilimlarga ega bo'lishi lozim. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma'lumotlarni, asosan, internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib o'zbek tilini keng targ'ib etish bo'yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim"[Mirziyoyev. 2019]. Albatta, internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir bo'lagiga aylanib borayotgani ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish ehtiyojini keltirib chiqardi.

²¹ Kuldasheva Sanobar Xayotovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktranti.

E-pochta: kuldashevasanobar01@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5476-7539

Iqtibos uchun: Kuldasheva, S. 2022. "Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish". O'zbekiston: til va madaniyat 4[2]: 119- 127

Asosiy qism

Darhaqiqat, multimedia vositalarining imkoniyatlaridan unumli foydalana olish o'qituvchi va o'quvchini yangi ta'lim muhitiga olib kiradi, ko'proq va kengroq ma'lumot egallash uchun shart-sharoit yaratadi. Pedagog-psixolog R.E.Meyerning tadqiqotlariga ko'ra, verbal va vizual materiallar sinxron taqdim etilganda, optimal o'rganish sodir bo'ladi [Meyer.1998:23]. Ma'lumotlarni turli idrok kanallari orqali bir vaqtda qabul qilish tinglovchilarni nazariy bilimlarini sezilarli darajada oshirish bilan birga ularning fikrlash, kognitiv faoliyat darajalarini rivojlantiradi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga asosan, multimediali ta'lim katta imkoniyatlarga ega bo'lib, o'qituvchining didaktik imkoniyatlarini oshiradi, o'quv jarayoni va o'quvchi shaxsining zaxiralarini ochib berishda imkon beradi. R.K.Minyar-Beloruhev tadqiqotlarida multimedia dasturlari nafaqat to'g'ri o'qish, talaffuz va grammatik qoidalarni o'rganishda, balki mintaqaviy va sotsiolingvistik ma'lumotlarni taqdim etishda ham qulay vosita ekanligini ta'kidlaydi [Миньяр-Белоручев.1990:21]. Garchi olim fransuz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda multimedia vositalarining muhimligini nazarda tutgan bo'lsa-da, ona tilini o'qitishda ham R.K.Minyar-Beloruhevning mazkur fikrlari ahamiyatini yo'qotmaydi. Ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish o'z samarasini ko'rsatganligi sir emas. A.Shukin "Ta'limning audiovizual vositalaridan sistemali foydalanish o'quvchiga motivatsiya beribgina qolmay, til o'rganishdagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun ham xizmat qilishi hamda darsning barcha bosqichlarida murojaat qilish mumkin" [Щукин.2003:195]ligini ta'kidlaydi. Bugungi kunda doska va bo'r o'rnini proektor va interfaol doskalar egalladi. Darsda o'zlashtiriladigan material va ma'lumotlarni endi nafaqat darslik, balki darsliklarning elektron ilovalari, hatto ijtimoiy tarmoqlardan ham topish mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonini interfaol texnologiyalar asosida tashkil etishda yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar zarurati tug'ildi. Bugungi maktab o'quvchilari zamonaviy axborot texnologiyalari (shaxsiy kompyuter, internet xizmatlari)dan juda faol foydalanadilar. Mubolag'asiz aytish mumkinki, yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlarning kompyuter o'yinlari, audio-video mahsulotlari va boshqa elementlarida tarbiyalanyaptilar. Shu bois zamonaviy darsning tarkibiga multimedia texnologiyalarini olib kirish, ona tili darslarini AKT bilan integratsiyalash ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Guohua Fu fikricha, til o'rganishda multimedia vositalarining ahamiyati sezilarli darajada. Ayniqsa, ikkinchi tilni o'rganishda filmlar va subtitrlardan foydalanish o'rinni ekanligini, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar inglizcha matndan ko'ra inglizcha videolarda haqiqiy talaffuzni eshitishlari, inglizlarga xos hayotni ko'rishlari o'rganuvchilarning ruhiyatini ko'tarishini ta'kidlaydi [Guohua Fu.2021:57]. Nafaqat ikkinchi tilni, ona tilini o'rganishda ham videomateriallarning samarasi katta. Matnda tasvirlangan voqea-hodisa videolavhalar orqali o'quvchining ko'z oldida gavdalanitiriladi. "Ba'zi hollarda o'quvchi matnda o'qigan axborotni tushunmay qolishi, tushunsa ham anglay olmay qolishi mumkin, anglamagan holatlarda savol berib mavhumlikni bartaraf etish, tush-

unchaning magʻzini chaqishda hamma bolalarda ham ishtiyoq topilavermaydi”[Kuldashaeva.2020:159]. Lekin videoda ham eshitish, ham koʻrish orqali tushunchani tez angʻlaydi va uzoq xotirada saqlanishi taʻminlanadi.

Metodist olim T.M.Voiteleva “oʻrganish samaradorligi turli sezgi organlarining oʻquv materialini idrok etish va oʻzlashtirishdagi ishtiroki darajasiga bogʻliq”[Воителева.2006:209]ligini taʻkidlagan. Audio, video, animatsiya, turli sxema va diagrammalar bilan aloqadorlik taʻminlanganda oʻquvchi koʻrish va eshitish orqali idrok etadi. Natijada unda voqea-hodisani his qilish, undan zavq, rohat, quvonch, muhabbat hislarini tuyish tuygʻusi paydo boʻladi. Barcha sezgi aʻzolarining ishtirokini taʻminlash oʻrganishning natijadorligini oshiradi. Audiomatndan eshitgan soʻz va gaplarini tahlil qiladi, izohlaydi, yozma ishlar yozadi; videoroliklarni koʻradi, xulosa chiqaradi, u asosida berilgan topshiriqlarni bajaradi; animatsiyalar yordamida yaratilgan ibratli yoki tanqidiy loyihalar orqali mustaqil fikrlaydi, baho beradi, xulosa chiqaradi. Xullas, jarayonga faoliyatli yondashadi.

Tajribalardan shu ayonki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini taʻlim tizimida joriy etish, dars mashgʻulotlarida ushbu texnologiyalarning turli shakllaridan samarali foydalanish nafaqat mazkur sohadagi bilim va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi, vaholanki oʻquvchi dunyoqarashining shakllanishiga, oʻz yoʻlini mustaqil tanlashiga, shaxsiy fazilatlarining mukammallashuviga taʻsir koʻrsatadi, bilim olish jarayoniga boʻlgan qiziqishini oshirishga, oʻrganishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Koʻplab olimlarning fikriga koʻra, “AKT oʻquvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy taʻsir koʻrsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, audio, video kabi turlicha usullarning kombinationsidan yaratilgan yangi, zamonaviy mahsulotlardan ona tili mashgʻulotlarida unumli va oʻrinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini taʻminlash oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlashlarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: maʼlumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallardan istalgan makon va zamonda foydalana olish mumkinligi, koʻrib idrok qilishni, mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi”. Oʻqituvchi, olim va dasturchining integrativ yondashuvi yangi taʻlim muhitini yaratadi va taʻlim jarayoni natijasidagi sifatning oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia shaklidagi oʻquv materiallarining taqdimoti oʻqish vaqti ni qisqartiradi. Yangi innovatsion axborot muhitida oʻquvchilar oʻquv jarayonida faol qatnashadilar, mustaqil fikrlashni oʻrganadilar, oʻz nuqtayi nazarlarini ilgari suradilar, real vaziyatlarni tahlil qiladilar. “Multimedia “inson-kompyuter” interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashtirilgan pogʻonasi boʻlib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalari asosida oʻquvchi, talabalarga taʻlim berish va kadrlarni qayta tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir”[Кашук.2014:200]. Fikrlashning quyi bosqichlari (oʻqing, tushunganingizni gapirib bering, koʻchirib oling kabi)dan fikrlashning yuqori bosqichlari (analiz, sintez qilish, kreativ fikrlash)ga chiqish multimedia vositalari orqali qulayroq amalga oshiriladi.

Ta'lim va dars mashg'ulotining har qanday bosqichida multimedia imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Uni darsning barcha bosqichlarida qo'llana olish imkoniyati esa bu texnologiyaning deyarli universalligini ko'rsatadi. Ana shu universallik o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham qo'shimcha qulayliklarni keltirib chiqaradi. Endilikda ushbu texnologiyalarning ko'plab fanlardagi asosiy shakllardan biriga aylanib borishidagi asosiy sabablardan biridir. Unda tavsiya etilayotgan manba va materiallarning rang-barangligini ko'p jihatdan ko'rish va kuzatish mumkin bo'ladi. Oddiy matn yonidagi turli jadvallar, sxemalar, diagramma va animatsiyali materiallarning namoyon bo'lishi mashg'ulot mazmunini boyitibgina qolmay, ularning o'quvchi tomonidan o'zlashtirishini osonlashtirishi, "hazm jarayonlari"ni qulaylashtirishi undagi afzalliklarni ko'rsatadi. Shuningdek, qo'shimcha bir qator imkoniyatlar bu shaklga imtiyoz ham beradi. Matnni takror va takror ko'ra olish, ta'kidlanishi lozim bo'lgan o'rinlarni maxsus belgilay olish, ularga animatsiya elementlarini ko'plab kiritishning mumkinligi va boshqalar shu siraga kiradi. Zhen Wang va Jianbo He o'z tadqiqotlarida "...bu – kompyuter va tegishli texnik jihozlar, rasmlar, matnlar, tovushlar, tasvirlar va turli xil ommaviy axborot vositalari ma'lumotlarini raqamli ravishda olish, boshqarish, aloqa qilish va qayta ishlash uchun yangi avlod kompyuter integratsiyalashgan va foydalanuvchilarga interaktiv ma'lumotlarni taqdim etish hamda mulohaza o'rnatish muhiti" ekanligini ta'kidlaydi. Multimediali axborot tasvir, tovush va animatsiya kombinatsiyasini birlashtiradi va foydalanuvchi terminaliga ko'p o'lchovli, ko'p burchakli va ko'p rejimda uzatish imkonini beradi. Multimedia texnologiyasi bir nechta axborot obyektlarini birlashtirib, qayta ishlanib, so'ng o'quvchiga har tomonlama ta'sir asosida taqdim etiladi. Ko'rish, eshitish, bajarib ko'rishning parallel holda bir vaqtning o'zida amalga oshirish esa o'quvchilarning muvaffaqiyatli qilishi, xulosa chiqarishi uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan omilga aylanadi. Mana shu jarayonlarning nisbatan qisqa muddat (vaqt oralig'i)da bajarish esa o'quvchining ijodiy fikrlashi, mushohadasi, eng muhimi, natijani ko'z oldida yuzaga kelishi asosida o'ziga bo'lgan ishonchning kuchayishiga olib keladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanadigan har bir shakl, vosita, metod va usullarning qo'llanish xususiyatlari mavjud. Pedagogik me'yor va mezonlarga rioya etish bu yerda ham o'z kuchini to'la saqlab qoladi. Bu siraga multimedia vositalaridan darsning qaysi qismida, qancha miqdor va muddatda foydalanish ham oldindan puxta rejalashtirilishi joiz bo'ladi. Ularga rioya etmaslik o'quvchida zerikish, tushunmay qolish, paydo bo'lgan savollarni esidan chiqarib qo'yish holatlariga olib kelishi mumkin. O'qituvchi video qo'yilgan dars jarayonida boshqa narsaga chalg'imasligi, shu bilan birgalikda o'quvchi bilan bab-baravar jarayon ishtirokchisiga aylanishi lozim, aks holda jarayonning buzilishi, o'quvchilarda norozilik kayfiyati, parokandalik holatlari paydo bo'ladi. Masofaviy videodarslarda bir xil turdagi ma'ruza shakllaridan voz kechib, har xil yangi faoliyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.


Multimediali ta'lim texnologiyasidan til sathining barcha sohalarini o'qitishda, dars mashg'ulotining yangi mavzuni tushuntirish, mustahkam-

lash, takrorlash, baholash, uyga vazifa berish bosqichlarida, qo'shimcha mashg'ulotlarda, to'garak darslarida va nazorat darslarida foydalanish mumkin. Buni ayrim misollar yordamida ko'rsatishga harakat qilamiz.


Tajriba-sinov materiallarini tayyorlash uchun 9-sinf ona tili darsligida berilgan "Ko'chirma gapli qo'shma gap haqida ma'lumot" mavzusidagi 170-mashq asosida multimedia texnologiyasi yaratdik. Uni shartli ravishda matn mazmunidan kelib chiqib "Ovchi bilan Durroj" hikoyasi deyish mumkin. Unga pedagogik ishlov berildi. Pedagogik ishlov berish jarayonida o'quv materialini oldingi (darslikda berilgan) shakldan ikkinchi (yangi) shaklga, o'quv topshiriqlari tizimi shakliga olib kelindi. 170-mashq asosida 2 ta topshiriq shakllantirildi.

1-topshiriq: Videorolik namoyishiga diqqat bilan quloq soling. Ovchi hamda Durrojning aytgan gaplarini imkon boricha to'la va to'g'ri shaklda daftaringizga yozib oling.

O'quvchilar ovchi va durrojning gaplarini videomaterialni ko'rish jarayonida eslab qoladilar va yozib olishga harakat qiladilar (Qarang: 1-2-rasm).



1-rasm.



2-rasm.

O'z gaplari (muallif gapi)ni qatnashtirib, voqea asosida matn tuzadilar va tinish belgilarini qo'yib chiqadilar. Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi va bu ekranning chetida ko'rinib turadi. Ajratilgan vaqt tugagandan so'ng, ekranda to'liq matn namoyon bo'ladi. O'qituvchi barcha o'z bajargan ishini tekshirib ko'rishi mumkinligini aytadi.

O'quvchilar matn tuzgandan so'ng, yana e'tibor ekranga qaratildi va 170-mashqdagi matn bilan o'zlari tuzgan matnni solishtirishdi.

Mashq matni: *Bir kuni durroj tuzoqqa tushib qoldi. U ovchiga yalinib dedi: "Sen meni qo'yib yuborsang, barcha do'stlarimni aldab kelib, tuzog'ingga tushirib beraman". Ovchi bu gapdan achchiqlanib dedi: "Yo'q ovora bo'lmay qo'yaqol, men seni qo'yib yubormayman. O'z joningni qutqarmoq uchun do'stlaringga xiyonat qilmoqchisan. Sofdil qushlardan ko'ra xiyonatkor do'stning o'lgani yaxshi".*

Ekranda yangi oyna ochilib matndagi gaplar yozilgan, ammo tinish belgilari qo'yilmagan holatda bo'ladi. Har bir tinish belgisi alohida-alohida (masalan: oldin ko'chirma gaplarning qo'shtirnoqlari, keyin muallif

gapidan so‘ng keladigan ikki nuqtalar) “o‘ynab-o‘ynab” o‘z o‘rniga kelib joylashadi. Bu jarayonni o‘quvchi kuzatib boradi (Qarang: 3-rasm).

2-topshiriq videokeys shaklida yaratildi. “2-topshiriq” yozuvini ustiga tugmachani bosganda, oyna ochiladi (Qarang: 4-rasm).

Ovoz:

Qani bolalar, savollarimizga javob izlab ko‘ringchi:

1. Sizningcha, ovchi to‘g‘ri yo‘l tutdimi?
2. Durrojning yana qanday chorasi bor edi?



3-rasm.



4-rasm.

Bu o‘rinda o‘quvchi yana qayta videoni tomosha qilishi uchun imkoniyat beriladi. Ekrandagi tugmachani bosib, oldingi sahifaga qaytishi, videoni qayta sinchiklab ko‘rib chiqishi mumkin. O‘quvchi endi matn bilan yuzaki tanishib chiqmaydi. Faqat tinish belgilarining qaysi o‘rinlarda qo‘yilishi haqida o‘ylamaydi, balki u ovchi changalida qolgan durrojda qutulib ketishning qanday choralari borligi haqida ham bosh qotiradi, unga yordam berish yo‘llarini o‘ylaydi, fikrlaydi, favqulodda vaziyatlardan chiqish imkonlarini axtaradi.

Tahlil va natijalar

O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish o‘rganilayotgan obyektlarning modellarini qurish, o‘quvchilarning faolligini oshirish, axborotning turli shakllaridan foydalanish: ovoz, tasvir, animatsiya, matn, katta hajmdagi ma’lumotlarni izlash, qayta ishlash, saqlash va boshqa imkoniyatlarini yaratib berdi. Bu ham o‘quvchiga bilim berish, ham ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun uning ruhiyatiga va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Mutaxassislar multimedia vositalaridan darsning deyarli barcha bosqichlarida samarali foydalanish mumkinligi haqidagi xulosalarni berishgan. Shunga tayangan holda aytilish mumkinki, ona tili darslarida ham mazkur holat imkoniyat sifatida mavjud. Har bir sinf doirasida va har bir mavzu kesimini o‘z ichiga qamrab olgan multimedia majmualarini yaratish o‘qituvchi uchun qulaylik keltiradi. Multimediali darslarda dasturiy ta’minot vositalari o‘qitishning

an'anaviy texnologiyalarini to'ldiradi. O'quv ma'lumotlarini animatsiya va ovoz effektlari bilan jihozlangan diagrammalar, jadvallar, videoklip, audiomatlar ko'rishidagi ko'plab vizual tasvirlarni o'quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, o'qitish usullari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan uzviy bog'liq holatda bo'lishini ta'minlash lozim. Multimediali pedagogik texnologiyalarni joriy etishda tilni o'qitish nazariyasi va amaliyotida doimo mavjud bo'lgan va vaqt sinovidan o'tgan lingvodidaktik konstantalar o'rtasidagi muvozanatni topish maqsadga muvofiq. Multimediali darslarning ustuvor maqsadi o'quv jarayonida zamonaviy axborotga boy muhitda o'quvchilarning samarali mustaqil ijodiy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shuni inobatga olgan holda, multimedia dasturini ishlab chiqishda o'qituvchi nafaqat mavzudagi o'quv vazifalarini, balki maqsadlari (o'quv, tarbiyaviy, rivojlanish)ni ham belgilab oladi, qo'shimcha ravishda axborot madaniyati tarkibiy qismlari (kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotni texnik qayta ishlashning yangi usullari bilan tanishish, axborotni kompyuterda qayta ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va h.k.)ni ham qamrab oladi.

Xulosa va takliflar

Ona tilini o'qitishda multimedia mahsulotlari fan o'qituvchisi tomonidan yoki fan o'qituvchisi rahbarligida tayyorlanadi. Bunda ikki xil yondashuvga asoslanish mumkin:

1. Darslikda berilgan material asosida.
2. Darslikdan tashqari materiallar asosida.

Darslikda berilgan material asosida deganda, mashq va topshiriqlar yuzasidan audiomatlar, kitobdagi kichik hajmli hikoya va rivoyatlaridan foydalanib video yoki animatsiya roliklari, mashqlarda berilgan gaplar asosida har xil texnologik topshiriqlar yaratish nazarda tutiladi. O'qituvchi uchun buning yengillik tomoni shundaki, material izlamaydi, har tomondan o'quvchining dunyoqarashiga to'g'ri keladigan tayyor darslikdagi matn ustida ishlaydi. Darslikdagi material asosida ishlaganda o'qituvchi o'zining imkoniyatlarini cheklangandek his qilmasligi kerak, u mashq va topshiriqlarning shartiga ijodkorlik, kreativlik asosida yondashib o'zgartirish kiritish imkoniga ega.

Darslikdan tashqari materiallar asosida yondashilganda, o'qituvchiga birmuncha yengillik mavjud, ammo shu bilan birga mas'uliyat yuklanadi. Material tanlashda chegara ko'rmaydi, turli manbalardan bolaning yoshi va dunyoqarashini inobatga olib material izlab topishi yoki o'zi ijod qilishi mumkin, ammo materialning mazmun-mohiyati, mavzu doirasi, hajmi masalasida belgilangan chegarani saqlay bilishi kerak.

Multimedia mahsulotlarini tayyorlashda didaktik jihatdan, ilmiy, tushunarli, uzluksizlik va yaxlitlik ta'minlangan, mavzu tizimli yoritilgan, muloqotning interfaolligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning yaxlit birligi inobatga olinib, boshqa talablar (metodik, psixologik, texnik ...) bilan mutanosiblashtirilsa, talab va ijro uyg'unligida ijobiy natijaga erishiladi. Mazkur talablar asosidagi innovatsion yondashuv o'quvchilar-

da yangi tajriba orttirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni anglash, kelajakka intilishni rivojlantirish bilan birga mustaqil intellektga ega shaxsni tarbiyalash uchun samarali omil vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar

Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. – Халқ сўзи, 2019 йил 21 октябрь.

Мейер Р.Э. A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principle. Santa Barbara, 1998. P.23-25.

Миньяр-Белоручев Р. К. Методика обучения французскому языку. М., 1990. С.173.

Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие. Москва. «Высшая школа» 2003. –С.229.

Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов. – М.: Дрофа, 2006. – С.319.

Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2019. – 129b.

Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2014. – С.223.

Инаков Қ.Қ. Ҳамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомиллаштириш. Пед.фан.б.фал.док...дис. – Тошкент, 2019. – 142б.

Тўхлиев Б. 5-синф адабиёт фанидан дарс ишланма намуналари (аудио ва 3Д форматидаги материаллар билан). – Тошкент, “Bayoz”, 192 б.

Юсупова Т., Мавлонова К., Наралиева Ш. Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Алматы: ЭСПИ, 2021. – (1-қисм, 214б.)

The use of multimedia technologies in teaching**THE NATIVE LANGUAGE**Kuldasheva Sanobar²²**Abstract**

The article discusses new approaches to teaching the native language in a secondary school, the integration of language education with ICT, the use of multimedia tools in teaching the native language, the norms and criteria for the use of multimedia tools, the level of intensity and content. The opinions expressed by scientists about the advantages of multimedia in teaching the native language are explained.

Key words: *multimedia, media culture, audiovisual, video, audiotext, animation*

References

Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. – Халқ сўзи, 2019 йил 21 октябрь.

Мейер Р.Э. *A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principle*. Santa Barbara, 1998. P.23-25.

Миньяр-Белоручев Р. К. *Методика обучения французскому языку*. М., 1990. С.173.

Щукин А.Н. *Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие*. Москва. «Высшая школа» 2003. –С.229.

Войтелева Т.М. *Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов*. – М.: Дрофа, 2006. – С.319.

Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. *Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik*. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2019. – 129b.

Кашук С.М. *Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку)* Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2014. – С.223.

Инаков Қ.Қ. *Ҳамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомиллаштириш*. Пед.фан.б.фал.док...дис. – Тошкент, 2019. – 142б.

Тўхлиев Б. *5-синф адабиёт фанидан дарс ишланма намуналари (аудио ва 3Д форматидаги материаллар билан)*. – Тошкент, "Bayoz", 192 б.

Юсупова Т., Мавлонова К., Наралиева Ш. *Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма*. – Алматы: ЭСПИ, 2021. – (1-қисм, 214б.)

²² *Kuldasheva Sanobar Hayotovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: kuldashevasanobar01@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5476-7539

Iqtibos uchun: Kuldasheva, S. 2022. "Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4[2]:119-127